

**FAVQULOTDA VAZIYAT SODIR BO'LGANDA EVAKUATSIYA  
YO'LLARI VA CHIQISH YO'LKALARIGA QO'YILADIGAN  
TALABLAR.**

*Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi*

*Mo'minjonov Nozimjon Nemadjon o'g'li,*

*To'laboyeva Habiba Muhibilla qizi,*

*Tojimuhamedova Hilola Dilshodbek qizi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada aholi va hududlarda favqulodda vaziyat sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish, evakuatsiya yo'laklariga qo'yilgan talablar, Yong'in vaqtida odamlarni va moddiy boyliklarni yong'in zonasidan evakuatsiya qilish, evakuatsiya maydonidagi chiqish yo'laklari soni hisobi haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** Evakuatsiya qilish, kritik miqdor, evakuatsiya uchastkasi, yo'llarni o'tkazish qobiliyat, yong'in zonasi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish borasida ko'rيلayotgan choralar tizimi faoliyati samaradorligining tahlili shuni ko'rsatadi, respublika aholisi va hududlarini muhofaza qilish sohasida bir qator muammoli masalalar mavjud. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini kamaytirish va samarali bartaraf etish aholining tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta'minlash, mamlakatni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyot tarmoqlari jadal rivojlanayotgani, ishlab chiqarish texnologiyalarining murakkablashib borayotgani, ishlab chiqarish obyektlarining aholi punktlariga yaqin joylashtirilayotgani, aholi soni ko'payib, urbanizatsiya

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

jarayoni tezlashayotgani, xavfli tabiiy jarayonlarning tez-tez sodir bo‘layotgani va ko‘lami kengayib borayotgani, shuningdek, transchegaraviy xavflarning mavjudligi tabiiy hamda texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlar paydo bo‘lish xavfini yanada oshirmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholi va hududlarni tabiiy ofatlar, texnogen avariya va falokatlardan himoya qilish bo‘yicha yaxlit davlat tizimi, zarur me’yoriy-huquqiy baza shakllantirildi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, shuningdek, aholini falokatlar paytida harakat qilishga tayyorlash borasida ko‘lami va mazmuni jihatidan ulkan ishlar amalga oshirildi.

Yong‘in vaqtida odamlarni va moddiy boyliklarni yong‘in zonasidan evakuatsiya qilish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Evakuatsiya vaqtining ruxsat etilgan miqdori haroratni inson uchun xavfli kritik miqdoriga (600) yetishi, havo tarkibida kislorod miqdorini kamayishi, xonani tutun bosib, ko‘rinish darajasini susayishi va zaharli moddalarini hosil bo‘lish vaqtি orqali belgilanadi. Zarur evakuatsiya vaqtida odamlarni harakatlanish tezligi 16 m/min., zinadan pastga harakatlanish tezligi 10 m/min, yuqoriga harakatlanishi 8m/min. atrofida bo‘ladi. I va II darajadagi yong‘inga chidamlilikdagi binolardan evakuatsiya qilish vaqtি 6 minut, III va IV darajadagi binolardan 4 minut, V darajadagi binolardan 3 minut qilib qabul qilinadi. Bolalar muassasalari uchun bu vaqt 20% kam qilib belgilanadi.

Evakuatsiya uchastkasining ruxsat etilgan uzunligi quyidagicha aniqlaniladi:

$$L_h = V T, \text{ m.}$$

Uchastkada odamlarni joylashish zichligi:

$$D = N/S, \text{ odam/m}^2,$$

bu yerda, N – uchastka maydonidagi odamlar soni; odamlarni gorizontal proeksiya bo‘yicha egallashi mumkin bo‘lgan maydon hisobida - 0,1...0,125 m<sup>2</sup>;

S – maydon yo‘lining yuzasi, m<sup>2</sup>.

Odamlar oqimining bo‘ylama zichligi: kattalar uchun - 10–12 odam/m<sup>2</sup>; maktab bolalari uchun 20-25 odam/m<sup>2</sup> atrofida qabul qilinishi mumkin.

Evakuatsiya maydonining talab etiladigan eni:

B=N/LD,m

Evakuatsiya maydonidagi chiqish yo'laklari soni:

$$P_{e,y} = 0,6 \text{ N}/100\text{B}.$$

Chiqish yo'laklari kamida 2 ta qilib qabul qilinadi. Ishlab chiqarishni yong'in xavflligi bo'yicha kategoriyasiga, binoni yong'inga chidamlilik darajasiga va necha qavatli ekanligiga bog'liq holda evakuatsiya chiqish yo'laklari bilan ish joyi orasidagi masofa 50 metrdan 100 metrgacha bo'lishi mumkin. Evakuatsiya eshiklarining eni 0,8...2,4 m, yo'llar 1,15. 2,4 m, zallar 1,4 m dan kam bo'lmasligi lozim.

Yo'llarni o'tkazish qobiliyati deb yo'l enining ko'ndalang kesimi bo'yicha vaqt birligida o'tadigan odamlar soniga aytildi va u quyidagicha aniqlaniladi:

$$Q = DVB.$$

Eni 1,5 m bo'lgan eshiklar va zinapoyalarning solishtirma o'tkazuvchanlik qobiliyati 50 odam/m min., eni 1,5. 2,4 m bo'lganda - 60 odam/m min. ga teng bo'ladi.

Ishlab chiqarish binolari uchun talab etiladigan o't o'chirgichlar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$n_o = m_o S,$$

bu yerda,  $S$  – ishlab chiqarish xonasining yuzi,  $\text{m}^2$   $m_o - 1 \text{m}^2$  maydonga me'yor bo'yicha belgilangan o't o'chirgichlar soni.

Bu ko'rsatkich materiallar ombori, garajlar, chorvachilik binolari, bug'xonalar, tegirmonlar, oshxona va magazinlar uchun  $100 \text{ m}^2$  maydonga 1 ta, elektr payvandlash sexlari, temirchilik sexlari, laboratoriylar uchun  $50 \text{ m}^2$  maydoniga 2 ta qilib qabul qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Mashrabboyovich, M. S. (2024). TEXNIK VOSITALARDAN CHIQAYOTGAN SHOVQINNING INSONLARGA BO 'LAYOTGAN TA'SIRINI O 'RGANISH. *Строительство и образование*, 3(5), 131-136.
2. Mo'Minjonov, N. N., To'Ychiyev, A. X., Abdualiyev, E. R., &

Akbarov, D. S. (2024). ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDAN CHIQAYOTGAN ZARARLI MODDALARNI AHOLI TURMUSH TARZIGA TA'SIRI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 445-448.

3. Mo'Minjonov, N. N. (2024). XAVFSIZ HARAKATNI TASHKIL ETISHDA MEHNAT MUHOFAZASI FANINI O 'QITISHNI O 'RNI. *Экономика и социум*, (6-1 (121)), 821-824.

4. Mominjonov, N. N. (2023). ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISHI NATIJASIDA INSONLARGA BO 'LAYOTGAN TA'SIRI. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 226-230.

5. Nozimjon, M., & Abdurakhim, K. (2023). TO THE QUESTION OF ANALYSIS OF INDUSTRIAL AND ENVIRONMENTAL SAFETY MANAGEMENT SYSTEMS. *Universum: механические науки*, (2-5 (107)), 20-23.

6. O'R.Yo'ldoshev, O.D.Rahimov, R.T.Xo'jaqulov, O.T.Hasanova "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. "Davr nashriyoti" Toshkent-2013